



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Тошкент шаҳри

Toshkent shahar, 100011, Abay ko'ch., 6-uy Tel: +998 71 244-25-67, Faks: +998 71 244-25-66, e-mail:
dav_ekspertiza@mail.ru www.mc.uz www.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: SHOBUTAEV BOBIR A

Sana: 20-11-2022 yil



Yig'ma ekspert xulosasi № 75856

Obyekt nomi «Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, "Suzukota" MFY, Suzuk ota, Suzuk ota tor va berk, Vatan berk, Dushanba berk, Termiz tor ko'chalari kanalizatsiya tarmog`ini o'tkazish (nasos va tarmoq).»

Buyurtmachi - "Suv ta'minoti va oqova suv ob'yektlari qurilishi bo'yicha injiniring kompaniyasi" UK Toshkent shahar va Toshkent viloyati hududiy boshqarmasi.

Bosh loyihachi - "OOO House Grand" MChJ

Litsenziya 034252-son 05.08.2022 yil. O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi.

Moliyalashtirish manbai - Byudjet mablag`lari hisobidan.

Bosh pudratchi - Tanlov asosida aniqlanadi

Qurilish turi Yangi qurilish.

Murojaat raqami: № 73813

1. Loyihalash uchun asos

1.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi 408-son Qarori.

1.2. Xalq Deputatlari Toshkent shahar kengashining 31.10.2022-yildagi VI-72-281-14-0-Q/22-son qarori.

1.3. Toshkent shahar hokimining 01.11.2022-yildagi 1126-14-0-Q/22-son Qarori.

1.4. Toshkent shahar Qurilish Bosh boshqarmasi tomonidan 2022-yil 18-noyabrda berilgan 1726-1726277-55566-son Arxitektura-rejalashtirish topshiriqlari.

1.5. "O'ZGASHKLITI" DUK Toshkent shahar va viloyat filiali tomonidan ishlab chiqilgan qurilish maydonining muhandislik-geologik sharoitlari to'g'risida xulosasi.

1.6. Buyurtmachi tomonidan 2022-yil tasdiqlanib, bosh loyiha tashkiloti bilan kelishilgan loyihalash topshirig`i.

1.7. Buyurtmachining 2022-yil 14-noyabrdagi 670-son xati.

1.8. Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish to'g'risida 2022-yil 17-noyabrdagi 8-408-son shartnoma.

1.9. "Toshkent shahar suv ta'minoti" MChJ tomonidan 2022-yil 4-noyabrda berilgan 270/4-3183-son texnik shartlari.

1.10. Buyurtmachining 2022-yil 19-noyabrdagi 681-son va 682-son kafolat xatlari.

1.11. 2022-yil 19-noyabrda buyurtmachi, bosh loyiha tashkiloti hamda yordamchi loyiha tashkiloti tomonidan tuzilgan 1-son dalolatnoma.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

Loyiha-smeta hujjatlarining "ishchi loyiha" bosqichida quyidagi qismlardan iborat:

Oqova suv tarmog`i loyihasi.

Qurilishning xarajatlar umumiy smeta hisob-kitoblari.

Ishlab chiquvchi yordamchi loyiha tashkiloti "Toshkent shahar suv ta`minoti" MChJ (Litsenziyasi: AL-000840 14.06.2020 yil).

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

Qurilish maydonining o`ziga xos xususiyatlari.

Qurilish maydoni- Toshkent shahar, Shayxontohur tumanida joylashgan bo`lib:

- hududning zilzilabardoshlik ko`rsatkichi - 9 ball.
- shamolning me`yoriy og`irlik kuchi - 38 kg/m²
- qorning me`yoriy og`irligi - 50 kg/m²
- yerning muzlash qatlami chuqurligi - 0,7 metr
- tuproqning cho`kish sharoiti bo`yicha turi - I-II.

Oqova suv tarmog`i.

Oqova suv tarmog`i loyihasi ishlab chiqilgan.

Oqova suv tarmog`i "Toshkent shahar suv ta`minoti" MChJ tomonidan 2022-yil 4-noyabrda berilgan 270/4-3183-son texnik shartiga asosan shahar tarmog`iga ulash ko`zda tutilgan.

Tarmoqning umumiy uzunligi - 4178.0 metr.

Shundan:

Tarmog`ining diametri 300 mm, uzunligi 409.0 metr,

Tarmog`ining diametri 200 mm, uzunligi 92.0 metr,

Tarmog`ining diametri 150 mm, uzunligi 139.0 metr Asbestotsement quvurlardan;

Tarmog`ining diametri 160 mm, uzunligi 540.0 metr,

Tarmog`ining diametri 200 mm, uzunligi 395.0 metr,

Tarmog`ining diametri 315 mm, uzunligi 453.5 metr, Polietilen quvurlardan;

Diametri Ø530×8,0mm-421.5 metr,

Diametri Ø426×8,0mm-387.5 metr,

Diametri Ø377×6,0mm - 524.5 metr,

Diametri Ø102×3,5mm - 816.0 metr yuqori darajada mustahkamlangan bitum-polimer korroziyaga qarshi izolyatsiya metall quvurdan loyihalangan metall quvurdan loyihalangan.

Xarajatlar smeta hisob-kitob hujjatlari.

Obyektning yakuniy smeta xarajatlari O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003 yildagi 261-son qarori va ShNQ 4.01.16-09 me`yorlariga asosan ishlab chiqilgan.

Loyiha tashkiloti tomonidan hisoblab aniqlangan obyektning ekspertiza ko`rigiga qadar dastlabki narxi

buyurtmachining boshqa xarajatlarisiz 15% QQS bilan hisoblanganda 6 405 788,426 ming so'mni tashkil qiladi.

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

Ushbu loyihada faqat oqova suv tarmoqlari ishlab chiqilgan.

Buyurtmachi, mazkur ob'ekt bo'yicha elektr tarmoqlariga ulanish uchun tegishli manfaatdor tashkilotning texnik shartlariga asosan loyiha hujjatlarini qayta ishlab chiqib, o'rnatilgan tartibda kelishilsin. Natijasi bo'yicha, loyiha-smeta hujjatlari ShNQ 1.03.06-16 va ShNQ 4.01.16-09 me'yorlari talablariga rioya etgan holda ekspertiza ko'rigidan o'tkazish uchun taqdim etilsin.

Eslatma: Buyurtmachi tashkiloti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi 256-son qarori talablariga rioya qilinsin. Obyekt bo'yicha muhandislik tarmoqlariga ulanish va ulardan foydalanish bo'yicha tegishli manfaatdor xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan loyiha kelishilsin.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

Loyiha tegishli tashkilotlar bilan 2022-yilda kelishilgan. Jumladan:

Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi;

"O'zbektelekom" AK TShTT;

"Toshkent shahar ETK" OAO;

"O'zbektelekom" "TTT";

"ENERGO-IT" AK "O'zbekiston Milliy Elektr tarmoqlari";

"O'ZGASHKLITI" DUK TShF;

"Hududgaz Toshkent shahar" MChJ;

"Toshisqisuvquvati" DUK;

Obodonlashtirish Bosh boshqarmasi;

Uchtepa tuman hokim o'rinbosari;

Shayxontohur tumani oqova suv tarmoqlari bo'limi;

"Suzuk ota" MFY;

"Toshkent shahar suv ta'minoti" MChJ bilan kelishilgan.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza taqdim etilgan ishchi loyihaning oqova suv tarmog'i loyihasi hamda smeta hujjatlari ko'rib chiqildi.

Ekspertiza jarayonida oraliq (lokal) ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihasiga quyidagi asosiy tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi:

-Buyurtmachining 2022-yil 19-noyabrdagi 681-son va 682-son kafolat xatlari taqdim qilindi;

-2022-yil 19-noyabrda buyurtmachi, bosh loyiha tashkiloti hamda yordamchi loyiha tashkiloti tomonidan tuzilgan 1-son dalolatnoma taqdim qilindi;

-"Toshkent shahar suv ta'minoti" MChJ tomonidan 2022-yil 4-noyabrda berilgan 270/4-3183-son texnik

sharti taqdim qilindi;

- Buyurtmachining 19-noyabrdagi 681-682-son xatlariga asosan loyiha tashkiloti tomonidan oraliq ekspertiza xulosalariga javob xatlari taqdim qilindi;

- ekspertiza tekshiruvini hamda ishchi loyihasidagi tuzatishlar bo'yicha smeta xarajatlarini qayta hisoblash natijasida joriy narxlarda QQS bilan hisoblanganda - 420 080,333 ming so'mga kamaytirildi.

Ishchi loyihasining dastlabki smeta xarajatlar hisob-kitobini kamaytirilishi yoki pasayganligi ish xajmlari, ish turi me`yorlari, mashina va mexanizmlarning narxlari, qurilish materiallari narxlari va transport xarajatlarini aniqlashtirish orqali qayta hisoblanish natijasida o'zgartirildi.

Buyurtmachi obyekt bo'yicha o'rnatiladigan import uskunalarni sotib olishida 2021-yil 22-apreldagi O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 684-son Qonun talablariga rioya etilsin.

Ishchi loyiha asosiy qurilish montaj ishlarining yakuniy xarajatlari buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, haqiqiy (ijro hujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.

Eslatma: Buyurtmachi tashkiloti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi 256-son qarori talablariga qat'iy rioya qilinsin.

Buyurtmachi loyiha-smeta hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda tegishli manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

Loyiha hujjatlari o'rnatilgan tartibda Toshkent shahar Qurulish Bosh boshqarmasi, obodonlashtirish boshqarmasi hamda Avtomobil yo'llardan fodalalanish boshqarmasi bilan kelishilsin, agar ushbu talablar bajarilmasa xulosa o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanadi.

"Hududiy Elektr Tarmoqlari" AJ "Shayxontohur"ning 2022-yil 19-noyabrdagi 23-0002-son texnik shartlari hamda Buyurtmachining 2022-yil 19-noyabrdagi 681 va 682-son kafolat xatlari hamda ShNQ 1.03.01-16 hamda ShNQ1.03.06-13ga asosan loyiha-smeta hujjatlari qayta ishlab chiqilib, ekspertiza ko'rigiga qayta taqdim qilinsin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil, 9-dekabrdagi PQ-4545-son qarorining tegishli bandlari bajarilsin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2018 yil, 26-dekabrdagi «Elektr tarmog'i xo'jaligi obyektlarini muhofaza qilish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida»gi 1050-son hamda 1998 yil 15-maydagi 210-son qaroriga asosan, telekommunikatsiya liniyalari va inshootlarini qo'riqlash qoidalariga amal qilinsin.

Eslatma: Buyurtmachi tashkiloti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi 256-son qarori talablariga rioya qilinsin. Obyekt bo'yicha muhandislik tarmoqlariga ulanish va ulardan foydalanish bo'yicha tegishli manfaatdor xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan loyiha kelishilsin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-son qarorining 29-bandiga asosan ekspertiza tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-son qaroriga asosan Buyurtmachi qurilishi markazlashtirilgan manbalar hisobiga moliyalashtiriladigan ob'ektlar boshlang'ich qiymati Davlat statistika qo'mitasining rasmiy saytiga (stat.uz) qo'yib boriladigan qurilish materiallarining joriy narxlari, mashina va mexanizmlar xizmati uchun o'rtacha narxlar hamda o'rtacha ish haqidan foydalangan holda shakllantiradi. Bundan tashqari, Buyurtmachi pudrat ishlari va qurilish materiallari bozorida marketing tadqiqotlarini o'tkazish, resurslarning davriy o'rtacha narxlarini tasdiqlash huquqiga egaligi belgilangan. Ushbu qarorning 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida "Mualliflik nazorati"ni amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o'rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha-smeta hujjatlarini o'zgartirish talabi qo'yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachiga to'liq tuzatishlarsiz berilsa, ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Ekspertiza natijalari buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan bo'lib, e'tiroz va qo'shimcha ko'rsatmalar mavjud emas.

Buyurtmachi, loyiha muallifi va pudrat tashkilotlari Mehnat va texnika xavfsizlik qoidalariga hamda yong'in xavfsizligiga rioya qilinsin.

Shartnoma bo'yicha import texnologik uskunalarni sotib olish va yetkazib berish xarajatlari va u bilan bog'liq xarajatlar shaharsozlik hujjatlari ekspertizasidan o'tkazilmadi.

7. Xulosalar.

Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda "Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, "Suzukota" MFY, Suzuk ota, Suzuk ota tor va berk, Vatan berk, Dushanba berk, Termiz tor ko'chalari kanalizatsiya tarmog'ini o'tkazish (nasos va tarmoq)" ishlari bo'yicha tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlari kelgusida ko'rib chiqish hamda kelishish uchun tavsiya etilayotgan cheklangan qiymat miqdori buyurtmachining boshqa xarajatlarsiz 15% QQS bilan xisoblanganda 5 985 708,093 ming so'mni tashkil etadi. Jumladan:

- jihozlarning ro'yxati (texnologik vositalar) va mebel inventar jihozlar - 197 880,000 ming so'mni;
- qurilish materiallari va mahsulotlari uchun sarflanadigan transport xarajatlari bilan birgalikdagi xarajatlar - 3 103 487,455 ming so'mni;
- asosiy oylik uchun ijtimoiy sug'urta to'lovlari (12%) xarajatlari bilan hisoblanganda - 788 025,403 ming so'mni;
- mashina va mexanizmlar uchun sarflanadigan xarajatlar - 378 192,573 ming so'mni;
- pudratchining boshqa xarajatlari (17,27%) - 737 378,128 ming so'mni;
- qo'shimcha qiymat solig'i (15%) - 780 744,534 ming so'mni tashkil etadi.

Bundan tashqari "Shaffof qurilish" MAT (0,05%) - 2 992,854 ming so'mni tashkil etadi.

Tavsiya etilayotgan cheklangan qiymat miqdor buyurtmachi va pudratchi o'rtasida shartnoma tuzishga asos bo'la olmaydi.

Buyurtmachi obyekt bo'yicha o'rnatiladigan import uskunalarni sotib olishida 2021-yil 22-apreldagi O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 684-son Qonun talablariga hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.01.2022 yildagi 46-son qarori talablariga rioya etilgan holda hamda ShNQ 4.01.16-09 me'yorlariga muvofiq tanlov savdolarini o'tkazish uchun obyektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi. Tasdiqlash uchun tavsiya etilgan qurilish ishlari narxi cheklangan qiymat xisoblanib, asosiy qarorni buyurtmachi va bosh pudrat korxonasi tomonidan shartnomaviy munosabatlar orqali amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.07.2022-yildagi yildagi PQ-332-son Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, obyektning cheklangan qiymati buyurtmachi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi "Loyihalarni va import kontraktlarni kompleks ekspertiza qilish markazi" DUKning ijobiy xulosasini hisobga olgan holda aniqlanadi. Ushbu qarorning 1-bob, 4-bo'limiga asosan- "Binolar, inshootlar va muhandislik kommunikatsiyalarini kapital qurish va ta'mirlash bo'yicha tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridini amalga oshirish uchun xarid qilish hujjatlari Markazga texnik topshiriq shaklida loyiha-smeta hujjatlari bilan birgalikda kiritiladi va ulardagi tovarlar (ishlar, xizmatlar) hajmlari va narx parametrlarining asosiligi yuzasidan ekspertizadan

o'tkaziladi.

Bosh mutaxassis: Asatillayev Sardor Asatilla o'g'li

Ishtirokchi ekspertlar:

Sin Olga Igorevna

TURAEV SHOHRUX ILXOMOVICH

4.2. Учкизил [Faylni ko'rish](#)

4.1. шартнома учкизил № 10-2022-5 _1_ [Faylni ko'rish](#)

4.2 Намуна-Дегрез [Faylni ko'rish](#)

4.1 шартнома намуна дегрез № 10-2022-1 _1_ [Faylni ko'rish](#)

шартнома учкизил № 10-2022-5 _1_ [Faylni ko'rish](#)